

“SAB'AI SAYYOR” DOSTONNING BOBLAR BO‘YICHA TAVSIFI.**Chorshanbiyeva Shohsanam****Shoberdiyeva Fotima****Ochildiyeva Zarina***Termiz davlat pedagogika instituti**Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti**yo‘nalishi 4-bosqich 22.01 guruh*

ANNOTATSIYA: Ushbu matnda Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi oltinchi hikoya mazmuni talqin qilinadi. Hikoya markazida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan ikki obraz — Muqbil va Mudbirning xulq-atvori, ma’naviy fazilatlar hamda ularning taqdiriga ta’sir etuvchi axloqiy sifatlar yoritiladi. Muqbil timsoli to‘g‘rilik, shukronalik, poklik va adolatning ifodasi sifatida tasvirlansa, Mudbir obrazi noshukurlik, yolg‘on, manfaatparastlik singari illatlarning mujassamidir.

KALIT SO‘ZLAR: “Sab’ai sayyor”, Muqbil, to‘g‘rilik, shukronalik, noshukurlik, axloqiy qarama-qarshilik, Alisher Navoiy, hikoya talqini, xalq og‘zaki ijodi.

ANNOTATION : This text presents an interpretative analysis of the sixth story in Alisher Navoi’s “Sab’ai Sayyor.” At the center of the narrative stand two contrasting characters — Muqbil — whose moral qualities shape their destinies. Muqbil represents honesty, gratitude, purity, and compassion, while Mudbir embodies ingratitude, deceit, selfishness, and moral corruption. Through these opposing figures, Navoiy emphasizes the triumph of virtue over vice and illustrates that immoral behavior inevitably leads to destruction.

KEYWORDS: “Sab’ai Sayyor”, Muqbil, Mudbir, morality, gratitude, ingratitude, ethical contrast, Alisher Navoiy, folk oral tradition, character analysis, moral values.

KIRISH

Bahrom Go‘r haqidagi afsona milodiy 438-yilgi hukmronlik davriga borib taqaladi. Uning nomi „Varaxran“ (dariycha — Bahrom) shaklida uchraydi. Qulon oviga nihoyatda qiziqqani bois Bahrom Go‘r deb tanilgan. Ushbu rivoyat avval yozma adabiyotga Firdavsiy tomonidan olib kirilgan, keyinchalik Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va boshqa adiblar ham shu mavzuda asarlar yaratgan. Navoiy esa avvalgi tajribalarni umumlashtirgan holda mazkur syujet asosida butunlay yangi, mukammal doston yaratdi. Asar Sharq adabiyotida „Bahrom va Gulandom“, „Bahromnoma“ yoki „Haft manzari Bahrom“ nomlari bilan keng tarqaldi. „Sab’ai sayyor“ an’anaviy ravishda hamd, munojot va na’t bilan boshlanadi, so‘ngra asosiy voqealar bayoni keladi.

Dostonning strukturasi „Xamsa“ning boshqa asarlaridan farq qilib, unda „hikoya ichida hikoya“ tamoyili qo‘llangan. Bahrom va Dilorom voqeasi asosiy ramka-hikoya vazifasini o‘taydi, shu asosda yettita mustaqil hikoya berilgan bo‘lib, ular bir-biri bilan mazmunan bog‘lanib, bir butun kompozitsiyani tashkil etadi. Har bir hikoya mustaqilligi bilan ajralib turishiga qaramay, xalq hayoti, tinchlik, adolat, vatanparvarlik, ma‘rifat va sevgi g‘oyalari markazda turadi; ikkiyuzlamachilik va zolimlik esa tanqid qilinadi. Bahrom — yetti iqlim hukmdori sifatida tasvirlanadi. Ov vaqtida u Moniy ismli musofirga duch keladi. Moniy unga Xitoylik go‘zal Dilorom haqida so‘zlab beradi va uning o‘zi chizgan suratini ko‘rsatadi. Suratni ko‘rgan Bahrom darhol oshiq bo‘lib qoladi va Xitoyning bir yillik xirojini to‘lab, Diloromni saroyga oldirib keladi. U sevgisiga shu qadar berilib ketadiki, davlat ishlarini e‘tiborsiz qoldiradi. Natijada mastlik va beparvolik oqibatida sevgilisidan ham judo bo‘ladi, oxir-oqibat uzlatga chekinadi. Undagi iztirobni yengish uchun yetti iqlim shohlari tomonidan yetti rangda yetti qasr quriladi.

ASOSIY QISM

Bahrom har kuni bir qasrda bir musofirdan hikoya tinglab boradi va asta-sekin ruhiy holatini tiklaydi. Oq qasrda yettinchi hikoyani eshitgan kuni esa Diloromning izidan xabar topadi. Uni qayta topib oladi, biroq yana ov va bazmga berilib ketadi va oxirgi ov paytida butun amaldorlari bilan birga halokatga uchraydi. Navoiy Bahrom obraziga chuqur ma‘no yuklab, unda muhabbat va saltanat bir shaxsda uyg‘un bo‘la olmasligini ko‘rsatadi. Shoir syujetni Xuroson va Movarounnahr hayoti bilan bog‘lab, asarga milliy-turkiy ruh singdiradi. Asardagi voqealar, qahramonlar xarakteri yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Navoiydan keyin ham og‘zaki va yozma adabiyotda bu rivoyatning ko‘plab talqinlari yaratildi: Sayqaliyning „Bahrom va Gulandom“, N. Sitsishvilining „Bahromguriani“, K. Yashin asarlari, „Mehr va Suhayl“ musiqali dramasi, „Dilorom“ operasi librettosi, G‘aribiy, Umar Boqiy, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining talqinlari shular jumlasidandir. Dostonning o‘ninchi bobi „Xamsa“ning boshqa asarlarida uchramaydigan Bilqisi Soniy — Xadicha begim madhiga bag‘ishlangan. Ulug‘ mutafakkir va shoir Alisher Navoiy o‘zining „Xamsa“sini yaratishda xalq og‘zaki ijodidan keng foydalanadi. Ayniqsa, „Xamsa“ tarkibidagi to‘rtinchi doston — „Sab‘ai sayyor“da yetti darvesh aytgan hikoyalar xalq rivoyatlari, ertak va naqlari ruhida boyitilgan. Dostondagi oltinchi hikoya esa to‘g‘rilik va halollik, haromdan hazar qilish, yolg‘onning oqibati, shukronalik va noshukurlik masalalariga bag‘ishlangan. Undagi qahramon Muqbil rozilik, shukrona va poklik timsoli sifatida gavdalanadi. U doimo shukr qiladi, mazlumlarga mehribon bo‘ladi, haqiqatdan chekinmaydi. Shu sababli taqdir unga iqbol va baxtiyorlik eshigini ochadi: u go‘zal malikaning mehrini qozonadi, yuksak hurmat va martabaga erishadi. Bularning barchasi Muqbilning halol va pok yashagan hayotining mukofotidir. Muqbilga qarama-qarshi obraz – Mudbir esa norozi, doimiy noshukur, manfaatparast va yolg‘onchi

sifatida tasvirlanadi. Uning barcha amallari tabiatidagi shukrsizlik, fitnagarliq va yomonlikni aks ettiradi. Navoiy Mudbir timsolida mavjud ne'matning qadriga yetmaydigan, faqat fitna-fasod bilan shug'ullanuvchi tor fikrli kishilarni keskin qoralaydi. Mudbirning zulmatga botgan xulqi tuzalmas darajada ildiz otgan, shuning uchun uning halokati muqarrar bo'ladi. Hikoyada shu ikki zid xarakter sohibi — Muqbil va Mudbir Boxtardan Xovirga yo'l oladilar. Ular kecha-kunduz yurishda davom etib, nihoyat hech kim yaqinlashmaydigan, havosi og'ir, tikanli, issiq bir vodiya kirib qoladilar. Bu joyni odamlar "qaynoq vodiya" deb atagan, chunki u yerning jazirama issig'i va og'riqli hidlari nafas olishni qiyinlashtirar edi. Bu holat Mudbirga yanada qiyin bo'lib tushdi: u o'zini yo'qotib, shikoyatga berildi, hattoki Xudoni ayblay boshladi. "Bu qanday havo?" deya norozilik bildirdi. "Suv yaratish shunchalar mushkulmi?" deb Xudoga arz qildi. Shu tariqa Mudbirning na shukri, na sabri borligi yaqqol namoyon bo'ladi.

XULOSA

Alisher Navoiy "Sab' ai sayyor" dostonining oltinchi hikoyasi orqali insonning axloqiy sifatleri taqdirni belgilovchi eng asosiy omil ekanini yorqin ochib beradi. Muqbil obrazida to'g'rilik, shukronalik, poklik kabi fazilatlar yuksak qadrlansa, Mudbir timsolida noshukurlik, yolg'onchilik va manfaatparastlikning insonni halokat sari yetaklashi ko'rsatiladi. Bu ikki obrazning hayot yo'li, ularning bosib o'tgan sinovlari va yakuniy natijasi orqali shoir ezgulikning mukofot topishini, yomonlikning esa baribir jazoga uchrashini badiiy tarzda tasdiqlaydi. Hikoya xalq og'zaki ijodi ruhida qurilgani bilan ham ahamiyatli bo'lib, undagi pand-nasihatlari o'quvchini to'g'rilik va shukronaga chorlashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sab' ai sayyor. — Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Sirojiddinov, Sh. Navoiy ijodining badiiy xususiyatlari. — Toshkent.
3. Abdug'afurov, A. Navoiy dostonlarida axloqiy-ruhiy tamoyillar. — Toshkent.
4. Xalq og'zaki ijodi bo'yicha ilmiy manbalar (maqol, rivoyat va dostonlarga oid tadqiqotlar).